

**BO‘LAJAK SHIFOKORLARDA TIBBIY MADANIYATNI
SHAKLLANTIRISH**

Fozilov Feruzjon Abdumo‘minovich.

Andijon davlat tibbiyot instituti.

Annotatsiya: *Maqolada bo‘lajak shifokorlarning kasbiy tayyorgarligida tibbiy madaniyat tushunchasi, uning tarkibiy qismlari va ahamiyati tahlil qilingan. Tibbiy madaniyatni shakllantirish jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion ta’lim texnologiyalari va axloqiy-me’yoriy qadriyatlarning o‘rni yoritilgan. Shuningdek, talabalarda tibbiy madaniyatni rivojlantirish bo‘yicha samarali metodlar va yo‘nalishlar taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *tibbiy madaniyat, shifokor etikasi, kasbiy kompetensiya, axloqiy qadriyatlar, innovatsion ta’lim.*

Kirish. Zamonaviy tibbiyot taraqqiyoti shifokordan nafaqat yuqori kasbiy bilim va amaliy ko‘nikmalarni, balki keng qamrovli ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni ham talab qiladi. Ayniqsa, tibbiy madaniyat tushunchasi bugungi kunda shifokorning professional faoliyatini samarali tashkil etishda hal qiluvchi omillardan biri sifatida qaralmoqda. Tibbiy madaniyat – bu shifokorning kasbiy faoliyatida ilmiy dunyoqarashga, axloqiy-me’yoriy qadriyatlarga, gigiyenik talablar va kommunikativ malakalarga amal qilishi, shuningdek, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatidir [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining so‘nggi yillarda qabul qilingan sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilishga oid qarorlarida tibbiy ta’lim sifatini oshirish va shifokorlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, tibbiy oliy ta’lim muassasalari oldiga talabalarda zamonaviy ilmiy tafakkurni shakllantirish, kommunikativ madaniyatni rivojlantirish va xalqaro standartlarga mos axloqiy-me’yoriy bilimlarni egallash kabi vazifalar qo‘yilmoqda [2].



Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, tibbiy xizmat sifatining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri bu – shifokor va bemor o'rtasidagi samarali muloqot, shaxsiy mas'uliyat va deontologik qadriyatlarga amal qilishdir [3]. Shu sababli, ko'plab xorijiy oliy ta'lim muassasalarida klinik fanlar bilan bir qatorda bioetika, tibbiy psixologiya, kommunikatsiya madaniyati kabi yo'nalishlarga ham keng o'rin berilmoqda [4].

Tibbiy madaniyatni shakllantirish bo'lajak shifokorlarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda markaziy o'rinni egallaydi. Bu jarayon faqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklanmay, balki talabalarning axloqiy qadriyatlarini boyitish, amaliy faoliyatda gigiyena va xavfsizlik qoidalariga qat'iy amal qilish, ilmiy yangiliklarni qabul qilish va qo'llash kabi ko'nikmalarini ham shakllantirishni taqozo etadi. Shu bilan birga, talabalarni jamiyatda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, profilaktik ishlarda faol ishtirok etishga yo'naltirish tibbiy madaniyatning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi [5].

Tibbiy ta'lim jarayonida bo'lajak shifokorlarda tibbiy madaniyatni shakllantirish nafaqat kasbiy tayyorgarlikning sifati, balki jamiyat salomatligi va millatning intellektual salohiyatini oshirish bilan ham uzviy bog'liqdir. Shu bois ushbu masala bugungi kunda ilmiy-pedagogik tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda [6].

Metodologiya. Ushbu tadqiqotning metodologik asosini tibbiy madaniyat tushunchasini nazariy jihatdan chuqur tahlil qilish va uni bo'lajak shifokorlarning kasbiy faoliyatida samarali shakllantirishga qaratilgan kompleks yondashuv tashkil etdi. Avvalo, ilmiy-nazariy manbalar tahlili orqali tibbiy madaniyatning mohiyati, uning tarkibiy qismlari hamda zamonaviy tibbiy ta'limdagi o'rni aniqlab olindi [1; 2]. Shundan so'ng, pedagogik nuqtai nazardan oliy tibbiy ta'lim muassasalarida qo'llanilayotgan metodlar o'rganilib, keys-stadi, rol o'yinlari, interaktiv seminarlar va simulyatsion laboratoriyalardan foydalanishning afzalliklari asoslab berildi. Bu esa nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiyalash, shuningdek, talabalarni kommunikativ madaniyat va axloqiy mas'uliyatni egallashga yo'naltirish imkonini berdi [3].



Tadqiqotda kompetensiyaga asoslangan yondashuv muhim o'rin tutdi, chunki bo'lajak shifokorlarning kasbiy tayyorgarligi nafaqat kognitiv bilimlar, balki axloqiy-kommunikativ malakalar va amaliy klinik faoliyatdagi gigiyenik hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish ko'nikmalarini ham o'z ichiga oladi [4]. Shu maqsadda tajriba-sinov metodlari qo'llanilib, tibbiy oliygoh talabalari o'rtasida so'rovnomalar, testlar, suhbatlar va pedagogik kuzatishlar o'tkazildi. Klinik amaliyot jarayonida esa talabalar faoliyatining monitoringi olib borilib, ularning tibbiy madaniyat darajasini aniqlash imkoniyati yaratildi [5].

Olingan ma'lumotlar matematik-statistik metodlar yordamida qayta ishlanib, miqdoriy ko'rsatkichlar asosida ishonchli xulosalar chiqarildi. Statistik tahlil bo'lajak shifokorlarning tibbiy madaniyatini shakllantirishda qo'llanilgan metodlarning samaradorligini o'lchash va ularning ta'lim jarayonidagi amaliy ahamiyatini asoslashga yordam berdi [6]. Metodologik asos sifatida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, integrativ ta'lim modeli va zamonaviy pedagogik innovatsiyalardan foydalanildi. Bunday kompleks yondashuv orqali bo'lajak shifokorlarning nafaqat kasbiy tayyorgarligi, balki ularning tibbiy madaniyati, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy mas'uliyati ham izchil shakllantirilishi mumkinligi ilmiy asoslab berildi.

Natijalar. O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bo'lajak shifokorlarda tibbiy madaniyatni shakllantirish jarayoni kompleks pedagogik yondashuvlar qo'llanilganda yuqori samaradorlikka erishadi. So'rovnomalar va test sinovlari orqali olingan ma'lumotlarga ko'ra, talabalarning aksariyatida nazariy bilimlar mavjud bo'lsa-da, ularda tibbiy etika va deontologik qadriyatlarga amal qilish, bemor bilan muloqot madaniyatini to'g'ri tashkil etish hamda klinik amaliyotda gigiyenik xavfsizlik qoidalarini puxta egallash borasida muayyan kamchiliklar mavjudligi aniqlandi. Shu bois simulyatsion mashg'ulotlar va interaktiv metodlar asosida tashkil etilgan tajribaviy mashg'ulotlar natijalari tahlili talabalar tomonidan tibbiy madaniyat komponentlarini o'zlashtirish darajasi sezilarli oshganini ko'rsatdi. Jumladan, o'quv jarayoniga keys-stadi va rol o'yinlari joriy etilganda talabalar bemor bilan samarali muloqot o'rnatish, etika qoidalariga amal



qilish va mas'uliyatli qaror qabul qilish bo'yicha ko'nikmalarni yanada chuqurroq egalladi.

Jadval 1. Bo'lajak shifokorlarda tibbiy madaniyat darajasining o'zgarishi (tajriba oldi va tajriba so'ngi)

Tibbiy madaniyat darajasi	Tajriba oldi (boshlang'ich %)	Tajriba so'ngi (yakuniy %)	O'zgarish (%)
Yuqori daraja	22 %	48 %	+26 %
O'rta daraja	46 %	40 %	-6 %
Boshlang'ich daraja	32 %	12 %	-20 %

Muhokama. Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, bo'lajak shifokorlarda tibbiy madaniyatni shakllantirish jarayoni an'anaviy ta'lim metodlari bilan cheklanganida yetarli samara bermaydi. Chunki faqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish talabalarda kasbiy axloqiy qarashlar, muloqot madaniyati va gigiyenik ko'nikmalarni mukammal shakllantirishga imkon yaratmaydi. Shu nuqtai nazardan, tajribaviy mashg'ulotlarda qo'llanilgan interaktiv metodlar, simulyatsion treninglar va rol o'yinlari talabalarda nafaqat bilimlarni mustahkamladi, balki amaliy faoliyatda to'g'ri qaror qabul qilish, bemor bilan samarali muloqot o'rnatish va shaxsiy mas'uliyatni kuchaytirishga yordam berdi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, mentorlik tizimi bo'lajak shifokorlarda tibbiy madaniyatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tajribali shifokorlarning shaxsiy namunalari talabalar ongida kasbiy qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qildi. Bu esa xalqaro tadqiqotlarda qayd etilgan ilmiy xulosalarga hamohangdir, chunki shifokorlarning kasbiy axloqi va kommunikativ madaniyati tibbiy xizmat sifatining asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida qoraladi [1; 2].

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, bo'lajak shifokorlarda tibbiy madaniyatni shakllantirish jarayoni tibbiy ta'limning sifatini oshirish va kelgusida sog'liqni saqlash tizimining samaradorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot davomida shifokorlik kasbiy faoliyatida tibbiy madaniyatning asosiy tarkibiy qismlari – kasbiy etika va deontologik qadriyatlarga amal qilish, bemor bilan samarali muloqot madaniyatini rivojlantirish, sanitariya-



gigiyena talablariga qat'iy rioya etish, shuningdek, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga bo'lgan shaxsiy mas'uliyat aniqlab berildi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, faqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish yetarli emas, balki interaktiv ta'lim metodlari, simulyatsion treninglar, keys-stadi va mentorlik tizimini qo'llash talabalar ongida tibbiy madaniyatni shakllantirishda yuqori samara beradi. Statistik tahlillar asosida isbotlanganki, tajriba jarayonida talabalarning yuqori darajadagi tibbiy madaniyat ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshdi, boshlang'ich darajadagi ko'rsatkichlar esa keskin kamaydi.

Shu boisdan, bo'lajak shifokorlarda tibbiy madaniyatni shakllantirish uchun ta'lim jarayoniga integrativ yondashuv, innovatsion pedagogik texnologiyalar va shaxsga yo'naltirilgan metodlarni keng tatbiq etish zarur. Ushbu yo'nalishdagi izchil chora-tadbirlar nafaqat tibbiyot oliygohlarida o'qitish sifatini oshiradi, balki kelgusida jamiyat salomatligi va millat intellektual salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Абдуллаева Н. Шифокор деонтологiyasi va tibbiy etika. – Тошкент: Fan, 2020. – 215 б.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Соғлиқни сақлаш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. – Тошкент, 2021.
3. World Health Organization. Global strategy on human resources for health: Workforce 2030. – Geneva: WHO Press, 2016. – 64 p.
4. Zulfieva D. Medical education and formation of professional culture of physicians. – Moscow: Meditsina, 2018. – 304 p.
5. Karimov S. Bo'lajak shifokorlarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi. // Tibbiy ta'lim va innovatsiyalar jurnali. – 2021. – №2. – Б. 45–52.
6. Beauchamp T., Childress J. Principles of Biomedical Ethics. – 8th ed. – Oxford: Oxford University Press, 2019. – 480 p.